

O‘ZBEKISTON ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA  
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO‘MITASI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

**Himoyaga ruhsat**  
Kafedra mudiri  
P.f.n., dotsent B.I.Ganiyeva

---

2014 y « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

“MUSTAHKAM OILA YILIGA BAG‘ISHLANGAN ADABIYOTLARNING  
TO‘LIQ MATNLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH (EK YARATISH)”

mavzusida

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bitiruvchi: \_\_\_\_\_ Mengliyeva Z.O‘.

Raxbar: \_\_\_\_\_ Amankeldieva N.

Taqrizchi: \_\_\_\_\_ Berdiyeva Z.SH.

XFH dan  
maslahatchi : \_\_\_\_\_ Abdullayeva S.M

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“AKT sohasida kasb ta’limi” fakulteti

“Axborot kutubxona tizimlari” kafedra

5320200-“Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” yo’nalishi

**TASDIQLAYMAN**

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_

2014 y. «\_\_» \_\_\_\_\_

Bitiruvchi Menglieva Zeboning “Mustaxkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli bazasini shakllantirish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

**T O P S H I R I Q**

1. Mavzu universitetning 2014 yil «25» fevraldagi №1371-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Ishni ximoyaga topshirish muddati 25 may 2014

3. Ishga oid dastlabki ma’lumotlar

Avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimlari va elektron kutubxonalar elektron katalogini yaratish algoritmlari hamda dasturiy vositalarni o‘rganish, tahlil qilish va o‘rganish. Mavzuga oid ma’lumotlar bazasini shakllantirish.

4. Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli bazasini shakllantirish va ushbu mavzuga oid resurslarning ma’lumotlar bazasini yaratishdan iborat.

5. Grafik materiallar ro‘yxati

Matnlarda blok sxemalarning berilishi;  
To‘liq matnli elektron ma’lumotlar bazasi.

6. Topshiriq berilgan sana \_\_\_\_\_

Raxbar \_\_\_\_\_  
imzo

Topshiriq oldim \_\_\_\_\_  
imzo

7. Ishning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilar:

Bo'lim nomi	Maslahatchi	Imzo , sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq olindi
<b>1-bo'lim.</b> Axborot kutubxona muassasalarida Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan ishlar tahlili	Amankeldieva N	28.02.2013 y.	
<b>2-bo'lim.</b> Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirish modeli va algoritmi	G'anieva B.	15.03.2014 y.	
<b>3-bo'lim.</b> Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning tashkiliy va funksional strukturasi	Mamatqulov I	20.05.2014 y	
<b>4- bo'lim.</b> Xayot faoliyati havfsizligi	Abdullayeva S.M	28.02.2014 y	

8. Ishning bajarish grafigi:

T/r	Ish bo'limlar nomi	Bajarish muddati	Raxbar (maslahatchi)
1.	Kirish	28.02.2014	
2.	Axborot kutubxona muassasalarida Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan ishlar tahlili	29.03.2014	
3.	Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirish modeli va algoritmi	17.04.2014	
4.	Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning tashkiliy va funksional strukturasi	30.04.2014 20.05.2014	
5.	Xayot faroliyati havfsizligi		

Bitiruvchi \_\_\_\_\_

2014 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Imzo

Raxbar \_\_\_\_\_

2014yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Imzo

Ushbu bitiruv malakaviy ishida mustahkam oila asoslari va jamiyatimizda yosh avlodni tarbiyalashda oilaning oʻrni. Oila yiliga bagʻishlangan adabiyotlarning toʻliq matnini yaratish va maʼlumotlar bazasini shakllantirishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. “Mustaxkam oila “yiliga bagʻishlangan adabiyotlarning toʻliq matnini shakllantirilgan algoritmi va dasturi keltirilgan.

Настоящая выпускная работа посвящена основе крепкой семи и роль семи воспитание молодой поколения в обществе. Создание полнотекстовой база данных по тематике год крепкой семи и раскрыт теоретический и практический создание база данных. Предоставляется алгоритмы и программы база данных по теме «Крепкая семья»

This work is devoted to the discharge based on a strong role and seven seven educate the young generation in society. Creating a full-text database by category and year seven strong theoretical and practical disclosed database creation. Available algorithms and data base on "Strong seed"

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	6
<b>1. BOB AXBOROT KUTUBXONA MUASSASALARIDA MUSTAHKAM OILA YILIGA BAG‘ISHLANGAN ISHLAR TAHLILI</b>	6
1.1 Mustahkam oilaning jamiyatimizda tutgan o‘rni	9
1.2 AKMlarida mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning targ‘iboti tahlili	
Birinchi bobga xulosa	27
<b>2. BOB MUSTAHAM OILA YILIGA BAG‘ISHLANGAN ADABIYOTLARNING TO‘LIQ MATNLI MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH MODEL I VA ALGORITMI</b>	
2.1 Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini yaratish modeli va algoritmlari	28
2.2 Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarni turkumlashtirish	37
Ikkinchi bobga xulosa	40
<b>3. BOB MUSTAHAM OILA YILIGA BAG‘ISHLANGAN ADABIYOTLARNING TO‘LIQ MATNLI MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKIL IY VA FUNKSIONAL STRUKTURASI</b>	41
3.1 Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini shakllantirishning funksional strukturasi	41
3.2 Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini shakllantirishning tashkiliy strukturasi	44
Uchinchi bobga xulosa	45
<b>4. BOB XAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI</b>	47
4.1 Mehnat faoliyati sharoitining klassifikatsiyasi	47
4.2 Ishlab chiqarish muhitida mikroiklimni inson salomatligiga ta’siri	52
Xulosa	57
Foydalanilgan adabiyotlar	59

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi:** O'zbekiston Respublikasining "Axborot kutubxona to'g'risidagi" Qonunida axborot kutubxona muassasalari oldiga elektron katalog, elektron kutubxona, yig'ma elektron katalog yaratish kabi bir qator yangi vazifalar qo'yilganki, ularni bajarish uchun axborot kutubxona muassasalarida avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimlarini joriy qilish talab qilinadi. Avtomatlashtirilgan axborot kutubxona tizimlari imkoniyatlarini o'rganish, kataloglashtirish va tizimdan foydalanish bo'yicha yutuqlarini o'zlashtirish hamda axborot kutubxona muassasalarida joriy qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish sohasida o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston hukumati va yurtboshimiz I.A. Karimovning istiqlol yillarida oila muammolariga hamda yosh avlodni ma'nan yetuk va jismoniy barkamol etib tarbiyalashga dahldor Farmon va Qarorlar qabul qildilar. Ular jumlasiga "Ayollar yili", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar yili", "Qariyalarni qadrlash yili", "Obod mahalla yili", "Mehr-muruvvat yili", "Sihat-salomatlik yili" va boshqalarni kiritish mumkin. 2012 yilni O'zbekiston Respublikasida "Mustahkam oila yili", deb e'lon qilinishi munosabati bilan Prezident I.A. Karimovning "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida "Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish ..." ga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas maskandir. U "jamiyat" deb atalmish olamning poydevorini tashkil etadi. Davlatimiz tomonidan oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirish, ko'p

bolali, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nochor oilalar, nogironlar, yetimlar, yolg'iz keksalar, bemorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada jamiyat talablariga mos insonlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo xalqlarining diqqat e'tiboriga sazovor bo'lmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi:** Axborot kutubxona muassasalarida Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishni iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Axborot kutubxona muassasalarida Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan resurslar tahlili.

2. Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning modeli va algoritmi

3. Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning funksional va tashkiliy strukturasi.

4. Axborot kutubxona muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligi masalalarini o'rganish.

**Tadqiqot obekti va predmeti:** Tadqiqot obekti Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayoni. Tadqiqot predmeti Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan to'liq matnli ma'lumotlar bazasini yaratishning shakl, usul va vositalari.

**Tadqiqot obektining amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalaridan Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishda korparativ axborot tizimlar, onlayn tizimlari orqali keng kitobxonlar ommasiga taqdim etish. Tadqiqot natijasida yaratilgan to'liq matnli ma'lumotlar bazasidan barcha talabalar, o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

**Ishning axborot ta'minoti:** Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlar, gazeta va jurnallar maqolalari kabilar axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi.

**Tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, to'rta bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlardani borat.

*Birinchi bob* “. Axborot kutubxona muassasalarida Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan ishlar tahlili” deb nomlangan va bu erda, “Mustahkam oilaning jamiyatimizda tutgan o‘rni”, “AKMlarida mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning targ‘iboti tahlili ” tushunchalariga ta’riflar va nazariy ma’lumotlar berilgan.

*Ikkinchi bob* “Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini shakllantirish modeli va algoritmi ” deb nomlangan va bu bobda “Axborot kutubxona muassasalarida Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnini yaratish modeli va algoritmi”,”Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarni turkumlashtirish” va ma’lumotlar bazasining shakllantirilganligi bayon etilgan.

*Uchinchi bob* “Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini shakllantirishning tashkiliy va funksional strukturasi” deb nomlangan bo‘lib bu bobda “Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini shakllantirishning funksional tashkiliy strukturasi”, “Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini shakllantirishning tashkiliy strukturasi “ haqida keltirilgan.

*To‘rtinchi bobda* Xayot faoliyati havfsizligi deb nomlangan bo‘lib bu bobda “Mehnat faoliyati sharoitining klassifikatsiyasi”. “Ishlab chiqarish muhitida mikroiklimni inson salomatligiga ta’siri havfsizligi masalalari” ko‘rib chiqilgan.

# **1-BOB . AXBOROT KUTUBHONA MUASSASALARIDA MUSTAHKAM OILA YILIGA BAG‘ISHLANGAN ISHLAR TAHLILI**

## **1. Mustaxkam oilaning jamiyatimizda tutgan o‘rni**

Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma’naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo‘yishiga sharoit yaratishdir.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go‘zal mo‘jizalaridan biri bo‘lib, u insonlrga xos “tabiiy-biologik”, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz–Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” – deb yozilgan<sup>1</sup>. Shu o‘rinda oilaga bag‘ishlangan yillarni sarhisob qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizda 1998 yil – “Oila yili”, 1999 yil – “Ayollar yili”, 2000 yil – “Sog‘lom avlod yili”, 2001 yil – “Onalar va bolalar yili”, 2002 yil – “Qariyalarni qadrlash yili”, 2003 yil – “Obod mahalla yili”, 2004 yil – “Mehr-muruvvat yili”, 2005 yil – “Sihat-salomatlik yili”, 2006 yil – “Homiylar va shifokorlar yili”, 2007 yil – “Ijtimoiy himoya yili”, 2008 yil – “Yoshlar yili”, 2010 yil – “Barkamol avlod yili”, 2012 yil – “Mustahkam – oila yili” va 2013 yil – “Obod turmush yili”dagi qator davlat dasturlarining bandlarida oila va uning farovonligini oshirishga qaratilgan vazifalar o‘rin olgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining oila kodeksi”, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi, “Sog‘lom avlod uchun” ordeni, “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati, “Mahalla” jamg‘armasi “Oila” ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi, bir qancha jurnallar joriy etilganligi,

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .-Toshkent; O‘zbekiston,2012 .-40b

1994 yil 1 oktyabrda “Kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 1997 yilning 1 yanvarida “Bolali oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qator farmon va qarorlar qabul qilinib hayotga tadbiq etilganligi buning yorqin ifodasidir.

Oila jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va demografik rivojlanishiga poydevor bo‘ladigan asosiy institutdir. O‘zbekistonda oilaning mavqei yuqori bo‘lib, respublika aholisining mutlaq ko‘pchiligi oila muhitida va oila a’zosi bo‘lib yashashi oilaning respublika taraqqiyotidagi o‘rnini belgilab beradi. Respublikamizda, qariyb 7,5 millionga yaqin oilalar mavjud. Bu oilalarda qanchadan-qancha bolalar tarbiya topib, voyaga yetib jamiyat uchun kerakli shaxsga aylanadi.

### **O‘zbek oilasining tarkib topishi**

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zbek xalqi oilaga, milliy tarbiyaga azaldan katta ma’suliyat bilan qarab kelganligini va bu masala mamlakatimizda hamisha dolzarb bo‘lishini ta’kidlab shunday yozadi: «...o‘zbek xalqi azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta farzandga mehr qo‘yish, ularning, qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb kasb etib kelgan»<sup>2</sup> O‘zbek xalqining qadimgi tarixini aks ettirgan «Avesto»da ham oila munosabatlari bilan bog‘liq mantiqiy fikrlar ilgari suriladi. Zarudushtiylikning muqaddas kitobi “Aveto”da oila, uning mustahkamligi, tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgani uning isbotidir. Oilaparvarlik va bolaparvarlik g‘oyalari faqat yo‘l-yo‘riqlar sifatidagina qabul qilinib qolmay, avlod turmushining baxtli- saodatli, to‘la ta’minotli, xushchaqchaq, serfarzand bo‘lishi to‘g‘risida ham katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatilgan.

Oila so‘zi aslida arabcha “Ayolmand”<sup>3</sup>, ma’nolarini anglatuvchi “Oil” so‘zidan chiqqanligi “Farhangi zaboni tojiki”da qayd etilgan. Agar ibtidoiy

---

<sup>2</sup>Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 55-bet

<sup>3</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. Uchinchi jild, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, - T.: , 2007, 97-bet.


jamiyatning boshlarida oilada bolalar kattalarning mehnati jarayonida bevosita ishtirok etish bilan malaka, ko'nikma va bilimlarni egallab borgan bo'lsa, keyinchalik ibtidoiy jamiyatning tabaqalanishi natijasida mehnat turlari ham o'zgarib bordi. Ayrim oilalarda bolalarni diniy aqidalarni ado etishga o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Shunday qilib, ibtidoiy jamiyatning o'zidayoq oilada va uning tabaqalanish an'anasi paydo bo'ldi. Jamiyat va oila taraqqiyoti, mehnat qurollarini takomillashtirish natijasida keyingi avlodga meros qoldiriladigan tajribalar hajmi ham o'sib boraverdi.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas maskandir. U **“jamiyat”** deb atalmish olamning poydevorini tashkil etadi. Davlatimiz tomonidan oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, qarovchisini yo'qotgan, nochor oilalar, nogironlar, yetimlar, yolg'iz keksalar, bemorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada jamiyat talablariga mos insonlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo xalqlarining diqqat e'tiboriga sazovor bo'lmoqda. Oila jamiyat va davlatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lishi huquqiga egaligi etirof etilgan. Mazkur Konstitutsiyaviy tamoyil asosida 1998 yilning 30 aprelida O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi qabul qilindi (3-rasm). Oila kodeksida o'z aksini topgan normalar o'z mazmun-mohiyati bilan oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda o'zaro muxabbat ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish kabi ezgu tamoillarga qat'iy amal qilish zarur.

## **O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida oila**

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 63- modda




1- rasm

Nima sababdan biz ko‘proq oila va unda yuz beradigan munosabatlarga e‘tiborli bo‘lamiz, nima sababdan oila maskanida o‘zimizni yaxshi, baxtli his etsak, ishimiz ham yurishgandek, omadimiz chopgandek bo‘ladi? Chunki oila bizning hayotimizdagi eng aziz va muqaddas dargoh! Faqat oilagina insonning baxtli bo‘la olishi, o‘zini kimlargadir kerakli his qila olishi yoki bo‘lmasa o‘zini ezilgan, omadsiz sezishiga sabab bo‘la oladi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi, uning inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog‘lom psixologik muhitli, nizo-janajalli, o‘zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o‘z otanasi, aka-ukalariga nisbatan balki atrofdagilarga, qolaversa, o‘zi yashagan jamiyatga nisbatan ham mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, zolim, xudbin, yurt

manfaatlariga zid, tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun havfli odam bo'lib yetilishi mumkin.

## Konstitutsiya va oila munosabatlari

### XIV bob




2-rasm

### O'zbekiston Respublikasi oila kodeksining tuzilishi va qabul qilinishi

O'zbekiston Respublikasining yangi oila kodeksi Oliy majlisning 1998-yil 30 –aprel Qarori bilan qabul qilindi va 1998 –yil 1-sentabrdan amalga kiritildi.

Oila kodesining tuzilishi




3 -rasm

Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun, insoniyat taraqqiyoti uchun, mustaqilligimiz istiqbollari uchun jiddiy xavf tug'dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta'minlash va bu masalani to'g'ri hal etilishining asosiy yo'li bo'lmish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi

hech kechiktirib bo‘lmaydigan, sustkashlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan, o‘ta jiddiy yondashishlarni talab etuvchi davlat, hukumat miqyosidagi dolzarb masaladir. Buning muvaffaqiyatli amalga oshishiga jamiyatimizning har bir fuqarosi, Siz o‘quvchilar, ota-onalar hamma birdek mas’uldir( 4-rasm).

### **Oila va jamiyat uyg‘unligi tamoyillari**



4- rasm

### **Oila – davlat va jamiyat muhofazasida**

Mamlakatimizda aholining deyarli 100 foizi oilalarga birlashib yashaydi. Chunki o‘zbekistonliklar uchun oila – yuksak qadriyat bo‘lib, mana necha yuzlab asrlar davomida e‘zozlanib kelmoqda. Zero, ushbu maskan inson o‘z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o‘zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir. Oilaning jamiyat ma’naviyatining poklanishidagi ahamiyati ham buyuk bo‘lib, u asosiy tarbiya o‘choqlaridan ekanligi barchamizga ayon. Zero, davlatimiz rahbari Islom

Karimov yozganlaridek, “oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”<sup>4</sup>. Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo‘lsa. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli bahtiyor his etadi.

Shu o‘rinda alohida e’tirof etish joizki, istiqbolimizning dastlabki yillaridanoq oilaning, jamiyat va davlat hayotidagi maqomini yuksaltirish, uning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, bosh qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiyamizda oila institutiga alohida bob ajratilgan bo‘lib, unda oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishi huquqiga egaligi e’tirof etilgan.

Oilaviy munosabatlarda o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish kabi ezgu tamoyillarga qat’iy amal qilish, oila oldida uning barcha a’zolari mas’ul ekani haqidagi eng muhim hayotiy qadriyatlarni barqarorlashtirishga katta hissa qo‘shdi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Mustaqillik yillarida oila va nikoh munosabatlarini mustahkamlashning ahamiyatiga alohida urg‘u bergan yurtboshimiz I.A. Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitoblarida “oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi sifatida doimiy e’tibor berib kelmoqdamiz”<sup>5</sup> deb ta’kidladilar.

Muhtaram yurtboshimiz boshchiligida xukumatimiz tomonidan yurtimizda oila institutini amalda mustahkamlash, uning nufuzini har tomonlama oshirish, xuquqiy asoslarini barqarorlashtirish masalasida talay ibratli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimiz taraqqiyotida

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. Toshkent: “Ma’naviyat” 2008.

<sup>5</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat”, 2008y.

muhim va unutilmas voqea 1998 yilda ro'y berdi. Muhtaram yurtboshimiz tashabbuslari bilan ushbu yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi barcha jamoatchilikning diqqat e'tiborini oila institutiga qaratgan bo'lsa, Vazirlar Mahkamasining maxsus 54-qarori bilan 2 fevral kuni Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi bu masala amalda ham davlatimizning ustivor siyosati yo'nalishidan biri sifatida oila manfaatlarini himoya qilish ekanligini isbotladi. Aynan shu yili Oliy Majlis tomonidan Oila Kodeksining qabul qilinishi esa oila munosabatlarining barcha jihatlarini reglamentatsiya qilinishining isboti bo'ldi. Qonunning kuchga kirishi ushbu noyob institutni mustahkamlash borasidagi amalga oshirilgan say'i-harakatlarning eng muhimi, deb e'tirof etilishi mumkin. Zero, muhtaram Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda, "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir.

Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi". Mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lidan O'zbekiston Respublikasida huquqiy-demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish jarayonida uning yahlitligini kafolatlovchi oila institutini mustahkamlash borasidagi davlatning istiqbolga yo'naltirilgan aniq siyosati olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi oila va har bir fuqaroning manfaatini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Kuchli ijtimoiy siyosat olib borishdek muhim tamoyilni hayotga tadbiq etish uchun mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab qator qonunlar, qarorlar qabul qilindi. Bularning asosiy maqsadi, mamlakatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida el-yurtimiz hayotiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadigan og'ir oqibatlarni imkon qadar kamaytirish, ijtimoiy himoyaga birinchi galda muhtoj bo'lgan aholi toifalari ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, yetimlar va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya etishdir. Oilani davlat tomonidan muxofaza qilinishi O'zbekiston Respublikasining Oila, Fuqarolik va Mehnat kodekslarida, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi,

“Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida”gi kabi qator qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Aholining ijtimoiy himoya qilish ko‘lamlarini kengaytirish va kuchaytirish, aholining muhtoj toifalari va oilalarga, nogironlar va yolg‘iz keksalarga aniq, tabaqalashtirilgan tarzda yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish, aholi daromadlari darajasidagi farqlarni keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik, jamiyatda hamjihatlik, ezgulik va mehr shafqat muhitini qaror toptirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksi amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 23 yanvarda PQ-573-sonli “Ijtimoiy himoya yili Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilinganligini ta’kidlash mumkin.

Ma’lumki, ”ijtimoiy himoya - bu fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, huquq va erkinliklarni ro‘yobga chiqarilishi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy chora-tadbirlarni majmui bo‘lib, u aholining turmush darajasini uzluksiz yuksaltirish maqsadini ko‘zlaydi”<sup>6</sup>. Bunday maqsadni amalga oshirish esa bozor munosabatlari sharoitida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash davlat siyosati ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash, aholini muhtoj bo‘lgan qatlamlariga ko‘mak berishni tashkil etish, ijtimoiy himoyani amalga oshirish jarayonidagi barcha munosabatlarni tartibga solish kabi vazifalarni bajarilishini taqazo etadi.

Shu ma’noda olganda oxirgi yillarda ijtimoiy sohaga oid qabul qilingan qator qonunlar asosan oilani qo‘llab quvvatlash orqali uning a’zolarini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishga qaratilmoqda. Mamlakatimizda oila muhofazasiga qaratilgan qator qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilinishi bilan birga ularni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 16-moddasiga muvofiq “Oila – jamiyatining tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli”. Deklaratsiyada oilaning bunday ta’riflanishi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida rasmiy ravishda o‘z aksini topdi.

---

<sup>6</sup> Saidov M.X. va boshqalar. Ijtimoiy himoya :atamalar izohli lug‘ati. -T.A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Miliy Kutubxonasi nashriyoti,2007.

Konstitutsiyaning 63-moddasiga asosan, “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”.

Yuridik atamalar qomusiy lug‘atida oila tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi: “Oila - kishilarning tabiiy – biologik, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi, jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida vujudga keladi”. Ushbu ta’rifda ham oilaning ijtimoiy-tabiiy va huquqiy ma’noda bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rinib turibdi. Darhaqiqat, millat ma’naviyatini yuksaltirishda, turmush tarzini yaxshilashda, jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida, mamlakatimizda o‘tkaziladigan tub islohotlarni amalga oshirishda oilaning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida oila farovonligini ta’minlash, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo‘lgan sog‘lom avlodni tarbiyalash oilaning faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Jismonan sog‘lom, ma’nan kuchli va aqlan yetuk sog‘lom avlodni yaratish–oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifasidan biridir. Shuning uchun bizning mustaqil davlatimizda oilaning mustahkam bo‘lishiga, uning tarbiyaviy imkoniyatini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar munosib insonlar bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim hayotiy qadriyatdir. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahallalari mustahkam bo‘lgan davlatda osoyishtalik va barqarorlik xukm suradi. Shuning uchun bugungi kunimiz va ertangi istiqbolimiz uchun eng muhim va dolzarb masala – oilaga e’tiborni kuchaytirish uni ijtimoiy himoyalash, e’zozlash va qo‘llab -quvvatlash vazifasidir. Oila va jamiyat rivojlanishi bir biriga chambarchas bog‘liqdir. «Oila-jamiyat negizi... Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab va ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi»<sup>7</sup>.Oila

---

<sup>7</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi .-T.1999

jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va demografik rivojlanishiga poydevor bo‘ladigan asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. O‘zbekistonda oilaning mavqei nihoyatda yuqoridir. Respublika aholisining mutloq ko‘pchiligi oila muhitda va oila a‘zosi bo‘lib yashashi oilaning respublika taraqqiyotidagi o‘rnini belgilab beradi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov, “...jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma’naviy sog‘lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi”<sup>8</sup> deb takidlab o‘tgan edi. Shuning uchun ham mustaqillik yillari oilalarni har tomonlama sog‘lom va mustahkam bo‘lishi davlat siyosatining ajralmas biri qismiga aylandi. Oilalar soni va uning o‘zgarishi mamlakatning sotsial va demografik rivojlanish xususiyatlariga bog‘liq. 1989 yilda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlariga binoan O‘zbekistonda 3415,4 mingtadan ortiq oila mavjudligi qayd etilgan. 1939-1989 yillar orasida oilalar soni 2,4 martaga ortdi. Hozir mamlakatda taxminan 6.5 mln.dan ortiq oilalar bor. Davlatimiz rahbari I.A.Karimovning oila masalalariga katta e’tibor berib, uning tarbiya beradigan maskanlar orasida eng muhimi, qadrlilik ekanligini ta’kidlab, shunday fikr bildirganlar: “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor”<sup>9</sup>.

## **1.2 AKMlarida mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlar targ‘iboti tahlili**

Oila – mehr-oqibat maskani, muqaddas va tabarruk qo‘rg‘on. Shuningdek, oila – jamiyat poydevori, uning mustahkamligi, sog‘lomligi jamiyat rivojining asosiy mezonini sanaladi. Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish davlatimizning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. 2012 yil muhtaram Yurtboshimiz tomonidan «Mustahkam oila yili» deya e’lon qilinishi va bu borada alohida Davlat dasturining qabul etilishi yurtimizda oilalarning yanada mustahkam bo‘lishi, o‘zaro tinch –totuv

<sup>8</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat”, 2008y

<sup>9</sup>Каримов I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda .-T:O‘zbekiston, 2000.-456b.

yashashi va jamiyat ravnaqi, yurt taraqqiyoti yoʻlida mehnat qilishida yanada keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Zero «Mustahkam oila yili» Davlat dasturida qayd etilganidek **Axborot kutubxona muassasalarida** ham keng ishlar olib borildi. Axborot kutubxona muassasalarida «Mustahkam oila yili» bagʻishlangan bibliografik koʻrsatkichlar, bibliografik qoʻllanmalar, kartotekalar tuzilgan. Yana kitob koʻrgazmalari, badiiy kechalar, tadbirlar, shoirlar bilan uchrashuvlar oʻtkazilgan.

**Bibliografik koʻrsatkich**-Yordamchi koʻrsatkichlarga ega boʻlgan murakkab tarkibli bibliografik qoʻllanma.

**Bibliografik qoʻllanma**-Maqsadli, mazmunli shaklli va boshqa belgilari asosida birlashtirilgan bibliografik qaydlarning tartibga solingan yigʻindisi.

**Bibliografik kartoteka**-Bibliografik axborotga ega boʻlgan kartochka shaklidagi bibliografik qoʻllanma. Kutubxona katalogidan farqli oʻlaroq bibliografik kartoteka oʻz ichiga kutubxonada yoʻq boʻlgan hujjatlar haqidagi maʼlumotlarni tuzish.

**Adabiyotlar koʻrgazmasi**–Adabiyotlarni koʻrgazmali targʻib etishning asosiy shakli mahsus saralangan va sistemalashtirilgan kitobxonga tanishtirish va sharxlash uchun tavsiya etiladigan bosma asarlar majmui.

### **“Mustahkam oila – mustahkam jamiyat negizi”**

#### **Mustahkam oila yiliga bagʻishlangan uslubiy qoʻllanma**

Ushbu metodik – bibliografik qoʻllanmada “Mustahkam oila yili”da Vatanimizning asosiy boʻgʻini boʻlgan oilalarga eʼtibor haqida, “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi toʻgʻrisida, “Mustahkam oila –jamiyat tayanchi” nomli kitob koʻrgazmasi, “Muqaddas dargoh eʼzosi” mavzusida tematik kecha, “Sogʻlom farzand –mustahkam oila asosi” nomli davra suhbat, “Bilimdon oila” va “Ona va bola obrazi badiiy adabiyotda” nomli bilimdonlar bellashuvlarini oʻtkazish uchun materiallar va adabiyotlar roʻyxati kutubxonachilarga ish faoliyatlari mobaynida foydalanishlari uchun tavsiya etiladi.

#### **Kitob koʻrgazmasi**

### **“Mustahkam oila – jamiyat tayanchi”**

1. Bo‘lim. Mustahkam oila – hayot abadiyligi, jamiyat barqarorligining asosi.

Ixtibos: Shodiyonalar istiqlolning timsolidir,  
Baxtli elning jamolidir, kamolidir,  
Osudalik kelar yillar iqbolidir,  
Assalom, Mustahkam oila yili.

Zulfiya Mo‘minova

2. Bo‘lim. Oila mustahkamligi – yurt ravnaqi

Ixtibos: Oila biz uchun azal mukarram,  
Ota-ona nomi aziz, muxtaram,  
Oila mustahkam – davlat mustahkam,  
Assalom, mustahkam – oila yili.

Zulfiya Mo‘minova

## **“Sog‘lom farzand – Mustahkam oila asosi”**

### **mavzusida davra suhbat**

Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom avlod yaratilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida 2000-2003 o‘quv yilidan boshlab umumta‘lim maktablarining o‘quv dasturlariga 1 – 4-sinflarda “Salomatlik darslari”, 5 – 6-sinflarda “Sog‘lom avlod asoslari” hamda “Sog‘lom avlod asoslari va oila” mavzusi bo‘yicha maxsus fakultativ kursning 16 soatlik o‘quv darslari kiritilib, tibbiyot xodimlari va kimyo-biologiya fani o‘qituvchilari tomonidan olib borilmoqda. Bu jarayonda pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish institutlari tinglovchilariga reproduktiv salomatlik va tibbiy madaniyat asoslari kurslarini o‘qitish bo‘yicha 4 soatlik o‘quv tashkil etilgan. Ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish, yoshlarda tibbiy madaniyatni shakllantirish maqsadida “Sog‘lom ona – sog‘lom bola”, “Sport – sog‘lom turmush tarzi garovi” ruknlari ostida qo‘llanmalar tayyorlanib, ularning 60 ming nusxasi respublikamizning barcha ta‘lim muassasalariga etkazilganligi ta‘lim va tibbiy madaniyatning uzviy ravishda amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

## **“Bilimdon oila” bellashuvi o‘tkazildi Turon axborot kutubxona markazida**

Bu tadbirga 2ta oila tanlab olinidi. Tanlangan oilalarning kasbi, bir-biriga yaqin bo‘lishi bilan birga oila a‘zolarining soni, yashash sharoitlari hisobga olindi. Har ikkala oila haqida to‘liq ma‘lumot olindi. Tadbir 3 bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin. 1-bosqich “Topqir oila”. Bu bosqichda har bir oila a‘zolariga 15-20 tadan savol berildi. Ma‘lum vaqt ichida ular tayyorgarlik ko‘rishdi.. 2-bosqichda “Oila boshliqlarining bellashuvi” bo‘lib o‘tadi. Bu bosqichda har bir oila boshliqlariga 8-10 tadan savol berildi. 3-bosqich. Erkin mavzu: 1) Bunda oila boshliqlari sahnaga chiqadi va Ona yoki farzand to‘g‘risida she‘r, monolog yoki biron sahnalashtirilgan asardan parcha ko‘rsatdi.

Tadbirning qiziqarli o‘tishi uchun har bir bosqich orasida onalar va bolalar mavzusida qo‘shiqlar ijro etildi. Ushbu tadbirga tayyorgarlik ko‘rib bo‘lgandan keyin, tadbir o‘tkaziladigan joy va o‘tkazish kuni, vaqti aniqlab olindi. So‘ngra taklifnoma va e‘lon yozib tashkilotlar, muassasalar, maktablar, kollejlari, litseylar va boshqalarga jo‘natiladi. Tadbir o‘tkaziladigan joy shinam va yorug‘ bo‘lib saxna tepasiga “2012 yil -Mustahkam oila yili” degan yozuv osib qo‘yiladi. shu mavzuga atab kitob ko‘rgazmasi ham tashkil qilinidi.

### **“Mustahkam oila-jamiyat tayanchi”**

#### **2012 - “Mustahkam oila yili” munosabati bilan uslubiy bibliografik ko‘rsatkich**

“Mustahkam oila yili” munosabati bilan Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi tomonidan ushbu ko‘rsatkich tuzildi. Ko‘rsatkich so‘z boshi, ikkita bo‘lim, sitatalar va vaqtli matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalar ro‘yxatidan iborat.

Ko‘rsatkichdan maktab o‘qituvchilari, kutubxonachilar, ARM xodimlari va keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

#### **Gazeta va jurnal maqolalaridan tuzilgan ko‘rsatkich**

1. “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori; 2012 yil, 27 fevral // Ta‘lim taraqqiyoti.- 2012.-№2.-B.3-5.

2. Safoeva M. Sogʻlom oila - jamiyat tayanchi // Sogʻlom avlod.- 2011.- 22 dekabr.
3. Normatov I. Maʼnaviyat niholi oilada ildiz otib, jamiyatga meva beradi, bundan millat kelajagi bahramand boʻladi // Inson va qonun.- 2012.- 10 yanvar.
4. Nishonov E. Oila - halovat maskani // Turkiston.- 2012.- 7 yanvar.
5. Togʻaev Q. Sogʻlom oila – jamiyat mustahkamligi va mamlakat barqarorligini taʼminlaydi // Inson va qonun.- 2012.- 6 mart.
6. Akramova M. Oila mehr bulogʻi, ahillik qoʻrgʻonidir // XX asr.- 2011.- 15 dekabr.
7. Jonuzoqov I. Muqaddas va daxlsiz qoʻrgʻon tinchligi, taqdiri uchun hammamiz masʼulmiz // Oʻzbekiston ovozi.- 2012.- 25 fevral.
8. Z. aripova R. Mustahkam oila - jamiyat farovonligi // Sogʻlom avlod.- 2012.- 26 iyul.

Axborot kutubxona muassasalarida “Jamiyat va oila “ mustahkam oila, jamiyatda ayolning oʻrna, maʼnaviy-ahloqiy tarbiya , milliy qadriyatlar va sogʻlom turmush tarsi shakllantirish boʻyicha amalga oshiriladigan tadbirlar:

№	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mehanizmi	Bajarilish muddati	Maʼsul xizmat va mutahasis va vazirliklar idoralar
1.	“Ayol baxti” Xalqaro xotin – qizlar bayrami munosabati bilan tadbir “Ayollar nomidagi memoriy obidalar”	Sanʼatkorlar bilan uchrashuv Film namoyilishi	mart	Toshkent teatrlar jamoalari UZINFOKOM markazi (kelishilgan holda)
2.	Milliy kutubxona mutaxassislarining “Bunyodkor” sport majmuasi bilan tanishuvi	Sayohat	may	Kasaba uyushmasi
3.	“Oila –mening qutlugʻ bogʻim” ijodkorlar klubi	Adabiy kecha	iyul	Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi (kelishilgan holda)

4.	O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi huquqshunos olimi Xadicha Sulaymonova tavvaludining 100 yilligi munosabati bilan	Adabiyotlarning ochiq ko'rgazmasi va obzori	iyul	O'zbekiston fanlar akademiyasi kutubxonasi (kelishilgan holda)
5.	"Mexr nurin yonar doim yuzingizdan Ustozlar!"	Adabiyotlarning ochiq ko'rgazmasi	sentyabr	O'qish zallari xizmati, Kitob fondini va davriy nashrlarni saqlash xizmati, Axborot kutubxona xizmati komplektlash xizmati

### 1.Bob xulosa

Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak , Jamiyat asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismoniy sog'lom, ma'naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirishda axborot kutubxona muassasalarining mavqeini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamlı chora tadbirlarni ko'rib chiqdik.

## **2.BOB. MUSTAHKAM OILA YILIGA BAG‘ISHLANGAN ADABIYOTLARNING TO‘LIQ MATNLI MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH MODELI VA ALGORITMI**

### **2.1. Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini yaratish modeli va algoritmlari**


Adabiyotlarning to‘liq matni - Hujjatlar, barcha turdagi adabiyotlar ma’lumotlarning elektron shakli.

Ma’lumotlar bazasi- markazlashtirilgan ma’lumotlar ombori. Ma’lumotlarni o‘qish saqlash, qayta ishlash va qidirish uchun mo‘ljallangan. O‘zing tezligi bilan ajralib turadi. Axborotni avtomatlashgan ko‘rinishda olishga, qayta ishlashga mo‘ljallangan mashinada o‘qish uchun moslashtirilgan va qo‘yilgan maqsadga xizmat qiluvchi ma’lumotlar yig‘indisi.

Ma’lumotlar bazasini yaratish - Adabiyotlarning to‘liq matnini yaratib elektron shaklga o‘tkazib dasturga kiritiladi. Bu ma’lumotlar elektron ko‘rinishda bo‘ladi va ular kompyuterda joylashadi. Bu kompyuterda yoki komputerning maxsus qurilmalarida, raqamli formatda saqlanadigan ma’lumotlarning to‘plamidir. Bu: har hil ma’lumotlar, gazeta va jurnallar, maqolalar, bosma, audio, video va multimedia ma’lumotlaridir. Bu ma’lumotlar maxsus kompyuterlar serverlarda joylashadi. Ma’lumotlar bazasini yaratishda KARMAT dasturidan foydalandim. Ya’ni Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarni gazeta va jurnal maqolalari to‘liq matnini yaratdim. To‘liq matnli ma’lumotlar bazasini yaratishda kiritish va chiqarish algoritmlari tuzib chiqildi (5-6 rasmlar).

## 2.1. Mustahkam oila yiligabag'ishlangan adabiyotlarning

### to'liq matnini kiritish algoritmi




1. Tizimni ishga tushirish.
2. KARMAT ga malumot kiritish.

3. Ma'lumotlar kelib tushgan joy.
4. Ma'lumotlarni qayta ishlab saralash.
5. Saralangan ma'lumotlarni MB ga kiritish.
6. Kiritilgan ma'lumotlarni chiqaradi.

Ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlar kiritish quyidagicha amalga oshiriladi.


### KARMAT dasturi.

Baza yaratish uchun loginga "admin" parolga esa "11"ni yozib "Kirish" qilamiz.(6-rasm)



6-rasm

Va "Kirish"dan keyin "Ma'lumotlar bazasi"ni tanlaymiz.(6.1 rasm)




6.1 rasm

Va "Yangi katalog qo'shish"ni to'ldiramiz.(6.2-rasm)



6.2 rasm


“Mustahkam oila” Ma’lumotlar bazasi yaratildi (6.3rasm).



6.3-rasm

Endi men “Elektron katalog” bo‘limidan “Ma’lumotlar bazasiga “adabiyotlarni kiritishni boshlaymiz.


“Ishchi saxifa”dan men qanday adabiyot kiritishni tanlab olaman.Men “jurnal va gazetaninig umumiy qismi”ni tanlab oldim (6.4- rasm)



6.4-rasm

KARMAT daturida adabiyotlarni kiritish uchun "kataloglashtirish" ishchi sahifasi tanlanadi. Gazeta va jurnal maqolalari esa "jurnal yoki gazeta" ishchi sahifasi tanlanadi. Gazeta va jurnallar maqolalari uch bosqichda kiritiladi.

**1.Serial nashrning umumiy qismi** -gazeta yoki jurnalning nomi, sarlovxasi, nashriyoti, nechanchi yildan chiqa boshlagani haqida ma'lumotlar kiritiladi(6.5-rasm).



6.5-rasm

**2.Serial nashrning alohida nomeri** - gazeta va jurnalning nechanchi soni,

## yili, beti, muharirlari yoziladi (6.6- rasm)

Ma'lumotlar bazasi (Katologlar) bo'limi

Yangi adabiyot qo'shish

001	Nazorat raqami	<input type="text"/>
008	Nazorat maydoni	<input type="text" value="140529       uz uzb "/>
020	ISBN indeksi	<input type="text"/>
022	ISSN	<input type="text" value="A^20104224"/>
040	Kataloglashtirish manbai	<input type="text" value="B^uzb"/>
041	Nashr tili	<input type="text" value="A^uzb"/>
090	Shifrlar	<input type="text"/>
245	Sarlavha to'g'risida ma'lumot	<input type="text" value="F^Илий методик журнал^С^Узбекистон Республикаси Халқ таълими вазирилик А^Та'лим менежменти"/>
260	Чи?иш маълумотлари	<input type="text" value="B^Ko'xi-nur^C^A^Toshkent"/>
300	Физик тавсифи	<input type="text" value="113 б."/>
500	Ilova	<input type="text" value="A^"/>
520 A	Annotatsiya	<input type="text"/>
773	Asosiy yozuv sarlavhasi	<input type="text" value="W^UZ/CR/1620000118^D^Toshkent: Ko'xi-nur^T^Ta'lim menejmenti"/>
700	Boshqa mualliflar	<input type="text"/>
901 T	Xujjat tipi	<input type="text" value="s- Серияли нашрнинг алоҳида номери"/>
900 A	To'liq matn	<input type="text" value="Выберите файл"/> Файл не выбран

1 mb gacha

Qaytish Qo'shish Tozalash

Copyright © 2007

**3. Serial nashrning tarkibiy qismi - gazeta yoki jurnalning maqolasi kiritiladi. Yani maqola muallifi, maqolaning nomi, maqola nechanchi saxifadali va to'liq matni kabilar kiritiladi (6.7-rasm)**

Ma'lumotlar bazasi (Katologlar) bo'limi

Tahrirlash

001 0	Nazorat raqami	UZ/CR/1620000112
005 0	Tahrirlangan vaqt	2014-05-23 12:36:42
001	Nazorat raqami	<input type="text"/>
008	Nazorat maydoni	<input type="text" value="140523       uz uzb "/>
022	ISSN	<input type="text" value="A^2017633"/>
040	Kataloglashtirish manbai	<input type="text" value="A^uzb"/>
041	Nashr tili	<input type="text" value="A^uzb"/>
100	Muallif	<input type="text" value="A^Талапова Кабирахон"/>
245	Sarlavha to'g'risida ma'lumot	<input type="text" value="A^Оила - жамият таянчи^H^001"/>
260	Чи?иш маълумотлари	<input type="text" value="A^Шарқ^C^2012^A^Тошкент"/>
300	Физик тавсифи	<input type="text" value="A^Б.5"/>
773	Asosiy yozuv sarlavhasi	<input type="text" value="W^UZ/CR/1620000111^X^2017633^D^Toshkent: Sharq, 2012^A^O"/>
653	Ochqich so'zlar	<input type="text"/>
700	Boshqa mualliflar	<input type="text"/>
901 T	Xujjat tipi	<input type="text" value="b- серияли нашрнинг таркибий қисми"/>
900 A	To'liq matn	<input type="text" value="Выберите файл"/> Файл не выбран

1 mb gacha

[Ўзбекистон овози 9 феврал.pdf](#)

Qaytish Tahrirlash

(6.7-rasm)

**Талапова, Кабирахон.**

Оила - жамият таянчи [Матн] / Кабирахон

Талапова. - Тошкент : Шарқ, 2012. - Б.5. - ISSN


2017-633

**О'zbekiston ovozi** [Матн] : Ijtimoiy-siyosiy gazeta / O'zbekiston Respublikasi Xalq Demokratik partiyasi Markaziy kengashi. -1918 yil iyundan chiqa boshlagan. - Toshkent : Sharq. -. -еженедельно. - ISSN 2010-7633


О'zbekiston ovozi : Ijtimoiy -siyosiy gazeta 9 fevral.- 2012.- 8 б.

6.8-rasm

900 maydonda To'liq matni “Выберите файл” tanlanadi va “открыт” tugmasi bosiladi (6.9-rasm).






6.9-rasm



6.10-rasm


KARMAT dasturida Ma'lumotlar bazasiga 2012 yildagi nashrdan chiqqan adabiyotlar va davriy nashrlar kiritildi. Adabiyotlar ro'yxati 116ta .Shulardan 10 tasi oila mavzusidagi maruzalar, qo'llanmalar va asarlar,100 tasi 2012 yil "Mustahkam oila yil"iga bag'ishlangan gazeta va jurnal maqolalarining to'liq matni kiritilgan (6.11-rasm).






6.11-rasm

## Mustahkam oila yiliga bagʻishlangan adabiyotlarning toʻliq matnini qidiruv algoritmi





10- rasm

1. Tizimni ishga tushirish
2. Tizimga murojat qilish ya'ni tizimga kirish.
3. Qidirish. Bu tizimda kalit so'zlar orqali qidirishni amalga oshirish mumkin.
4. Saralash. Qidiruv tizimi ASCII belgilarini registrlarini hisobga olmasdan qidiradi. Agar harflar katta yoki kichik registr bo'lishiga qaramasdan qidiruv skripti ularni bitta registrga o'zgartiradi va natijani chiqarib beradi.
5. Qidiruv jarayonida kiritilgan kalit so'zni script ma'lumotlar bazasidagi barcha qidirishga ruxsat etilgan va indeksatsiya qilingan jadvallardan qidira boshlaydi. Agar kalit so'zlar bo'yicha ma'lumot topilsa, script uni almashinuv buferiga oladi va qidirishda davom etadi.

6. Qidiruv massivdagi eng so'ngi o'xshash element topilguncha davom etadi.

7. Undan so'ng natija ekranda chop etiladi.

## **2.2. Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarni turkumlashtirish**

2012 yil Mustahkam oila yili deb elon qilingan kundan brshlab yurtimizda juda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa Axborot kutubxona muassasalarida Mustahkam oila yiliga bag'ishlab tadbirlar anjumnlari yig'ilishlar o'tkazildi. Shoir va yozuvchilarning asarlari she'riy to'plamlari nashrdan chiqdi.

Davriy nashrlar gazeta va jurnallarda Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan maqolalar chiqarildi. Maqolalarning sistemali kartotekasi va sistemali katalog uchun yagona alfavit predmetli ko'rsatkich yaratiladi. Maqolalar ikki xil bo'ladi. Har hil turdagi gazeta va jurnal maqolari bo'ladi (11-rasm).


**Qonun va Qarorlar** –2012-yil “Mustahkam oila yili” davlat dasturi hamda oila mavzusiga bag'ishlangan qonunlar, qarorlar, hujjatlar to'plami.


**Gazeta maqolasi** –Vaqtli matnli varaqa shaklidagi nashr. O'z ichiga rasmiy materiallarni, amaliy axborotlarni va dolzarb ijtimoiy–siyosiy ,ilmiy ishlab chiqarishga oid va boshqa masalalar bo'yicha maqolalar,shuningdek ,badiiy asarlar, rasm, suratlar, reklamalarni oladi.

**Jurnal maqolasi** - Ijtimoiy-siyosiy ,ilmiy ishlab chiqarish va boshqa masalalar bo'yicha maqola yoki referatlar , adabiy asarlar, ilyustratsiyalar berilgan davriy nashr.

**Foto albom-** Bu foto hujjat hisoblanadi. Ta'sviriy san'atga oid adabiyotning qisqacha izoh matni berilgan nashri. Fotosur'at marka vashu kabilarga mo'ljallangan qalin daftar turi.

**SD disklar-**Texnika vositalari yordamida ma'lum qilinadigan ovozli tasviriy yoki tasviriy ovozli xabarga ega bo'lgan hujjatlar





11-rasm

## 2. Bob xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak birinchi bobda ko'tarilgan masalalarni hal etish yo'lida Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnini ma'lumotlar bazasini shakllantirish g'oyasi, qidiruv algoritmi, ma'lumotlarni kiritish algoritmi ishlab chiqildi.

Demak, Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnini ma'lumotlar bazasini shakllantirish onlayn va korporativ tizimlar orqali foydalanuvchilar oila haqidagi barcha ma'lumotlarni gazeta va jurnallar maqolalarni o'qishlari mumkin.

### **3.BOB MUSTAHAM OILA YILIGA BAG‘ISHLANGAN ADABIYOTLARNING TO‘LIQ MATNLI MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILY VA FUNKSIONAL STRUKTURASI**

#### **3.1 Mustahkam oila yiliga bag‘ishlangan adabiyotlarning to‘liq matnli ma’lumotlar bazasini shakllantirishning funksional strukturasi**


**Funksional struktura** - inglizcha (functional structure) so'zidan olingan bo'lib, faoliyat jarayonlarining funksional elementlari orasidagi aloqani aks ettiruvchi degan ma'noni anglatadi. Elementlar deganda esa, faollik vaqti va chegarasida lokallashtirilgan faoliyat jarayonlarining yo'naltirilgan harakati va fazasi ma'nosi anglashiladi.

Psixik faoliyatning tizimli tavsifida metodologik jihatidan tayanch nuqtalar bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- elementlar tipologiyasi (qidiruv, tanish moddiy yoki mahsuliy funksiyalarga yo'naltirilgan);
- elementlar orasidagi munosabatlarning tiplari (genetik, funksional va boshqa); ular elementlarning o'zaro bog'liqligining tartibini xarakterlaydi.

Elementlar bir xil (ular asosiy va ishlab chiqilgan) bosh va ikkinchi darajali deb ajratish mumkin; turli darajadagi funksional struktura turli xil elementlarga mos keladi. Yuqori darajada bajarilgan funksiyalar shaklida elementlarni tashkil etish qoidasiga ko'ra nisbatan alohida diferentsiyallashgan bo'ladi. Funksional strukturaning elementlari munosabatlari tushunchasi faoliyatning murakkab shaklini tavsiflash uchun vosita sifatida xizmat qiladi. Bu vositalar faoliyat turlarining ob'ektiv xarakteristikasini harakatini va ularning amal qilish xususiyatlarini aks ettirish uchun ham qo'llaniladi. Ular faoliyatni mumkin bo'lgan munosabatlar orasidagi va aloqa tiplari orasidagi o'zaro birlik tizimi kabi taqdim etishga imkon beradi (12-rasm).

**Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning funksional struktura**



12-rasm

**Ma'lumotlarni to'plash** - Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlar, ma'ruzalar, maqolalar va boshqa ma'lumotlarni yig'ish.

**Ma'lumotlarni saralash** - Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyot va ma'lumot turlari. Yani kitoblar, gazetalar va jurnallar maqolalari, audio disklar va roliklar, qarorlar va qonunlarni ajratadi.

**Ma'lumotlarni raqamlashtirish** - Qog'ozli ma'lumotlarni skaenerlash, audio va roliklarni raqamliga o'tkazish.

**Kataloglashtirish** - Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarni KARMAT dasturida kiritdim. kitoblar, gazetalar va jurnallar maqolalari, audio disklar va roliklar, foto albomlar katalogi va to'liq matnli tuzildi.

**Kiritish** - Kerak bo'lgan muallif, sarlavha nomi yoki to'liq matni qidirilayotgani haqida ma'lumot kiritish.

**Qidirish** - Kerak bo'lgan ma'lumotlarni kiritgandan so'ng ularni EK dan, Mustahkam oila yili bazasidan qidirish.

**Natija** - Elektron kutubxonani yaratish. Izlanayotgan ma'lumotlarni ekranga chiqarish. Masalan qancha kitobxon ularning turi, foydalangan ma'lumotlari va shu kabilar.

**Elektron kutubxona** - bu turli ma'lumotlar jamlangan Internet saxifasidir. Bu saxifani kutubxonalardagi maxsus markaz mutaxassislari ma'lumotlarni muntazam ravishda kompyuterga kiritadi va yig'adi. Ya'ni ma'lumotlar doimo yangilanib turiladi va kutubxona xajmi kengayib boradi.

### **3.2 Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning tashkiliy strukturasi**

Bizga ma'lumki, kutubxonalarning rivojlanish strategiyasida tashkiliy ta'minotning o'rni beqiyosdir. **Tashkiliy tuzilma** - bu AKM tarkibidagi bo'limlar, ularning o'zaro hamkorligi va bo'ysunishini belgilaydi. Tashkiliy tuzilmaning to'g'ri tuzilishi faqatgina bo'limlar ishi samaradorligini oshiribgina qolmasdan, balki AKM faoliyati samarasini ham oshiradi (13-rasm). Yangi tashkil qilingan AKM laridagi texnik kompleks, zamonaviy hisoblash texnikalari va ilg'or axborot texnologiyalari hisobiga rivojlantirilmasa bu yangi tashkil qilingan AKM larining an'anaviy kutubxonalardan farqi bo'lmaydi va kutubxona xizmatida sifat jihatdan progress bo'lmaydi. So'zsiz barcha yangi tashkil qilinayotgan AKM zamonaviy qisoblash texnikasi va tashkiliy texnika vositalari hamda dasturiy vositalar bilan ta'minlanishi zarur. Bu erda qaysi AKM qanday texnika bilan ta'minlash kerak degan juda muhim savol tug'iladi. AKM taxnika bilan ta'minlashda quyidagi ma'yorlarga rioya qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi, zero ular olinayotgan texnika vositalarining soni va tarkibini aniqlashga ta'sir ko'rsatadi:

Kutubxona fondi qanday (kutubxonada saqlanayotgan hujjatlar hajmi). Fond qanchalik katta bo'lsa, AKMgi olinayotgan kompyuter xotirasi va tezligi shunchalik katta bo'lishi talab etiladi. To'liq matnli ma'lumotlar bazalarini shakllantirish ham buni taqozo qiladi;


Kompyuterlar yordamida bajariladigan funksiyalar, ishlar ko'rinishi va soni. Funksiyalar soni avtomatlashtirilgan ish joylari soniga to'g'ri proporsional bu esa o'z navbatida kompyuterlar soniga ta'sir ko'rsatadigan faktorlardan biri.

AKM tomonidan xizmat ko'rsatish ehtimoli tutilayotgan kitobxonlar soni yoki viloyat aholisining soni. Kitobxonlarning AKM ko'p kelishi kompyuterlashtirilgan o'quv zallarining kengayishiga olib keladi;

Shuning uchun ham AKM texnik ta'minoti bo'yicha me'yoriy-normativ hujjatlar, standartlar ishlab chiqilishi kerak. Olinayotgan har bir kompyuter asoslanmog'i lozim. AKMni ortiqcha texnika vositalari bilan ko'mib tashlash ham kerak emas (texnika vasitalari tez eskiradi) va ayni paytda texnika vositalarining etishmasligi ham qo'yilgan vazifalarni bajarishga to'sqinlik qiladi.

Texnik ta'minot AKM avtomatlashtirishda juda muhim ammo etarli shart emas. AKM avtomatlashtirish uchun dasturiy vositaning to'g'ri tanlanishi juda muhimdir.

**Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning tashkiliy strukturasi**



13 -rasm

**Direktor** - kutubxona faoliyatini va barcha bo'linmalar ishini boshqaradi. Kitobxonlarga axborot-xizmati ko'rsatishni tashkillashtirish bo'yicha turli mazmundagi buyruqlarni imzolaydi. Bo'limlar faoliyatini nazorat qiladi. Boshqa tashkilotlar bilan, yuqori organlar bilan munosabat o'rnatadi, moddiy va mahnaviy rag'batlantirish ishlarini tashkil etadi.

**Direktor o'rinbosari** -bo'limlarnig ish rejalari va hisobotlarini nazorat qiladi, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etadi.

**Admin** – administratsiya bo'limi kutubxona web saytiga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni, bibliografik ma'lumotlarni elektron katologlashtirishni, yangiliklar va ma'lumotlar kiritishni taminlaydi..

**Komplektlash bo'limi** - Kutubxonaga keladigan kitoblar hujjatlarga kerakli ishlov beriladi:

- 1.Inventar raqami
- 2.Muallif ism familyasi
- 3.Kitob sarlovhasi
- 4.Chiqish ma'lumotlari
- 5.Narxi

**Qayta ishlash bo'limi**- ushbu bo'limda kitoblarga texgnik va ilmiy ishlov berish, kitoblarni elektron katalogga kiritish, kataloglashtirish va tahrir qilish ishlari olib boriladi. Kitoblarga ilmintar nomeri BBK qo'yiladi.

**Raqamlashtirish**- Qog'ozli ma'lumotlarni skaener qiladi.

**Fond** - Aynan shu bo'lim kutubxonaning asosiy fondi, nodir adabiyotlarni saqlash va ularni joylashtirish ishlarini amalga oshiradi.

**To'liq matn** -Skaeaner qilingan ma'lumotlarni bazaga dasturga kiritiladi.

**Foydalanuvchi**- Kutubxona fondidan kerakli ma'lumotlarni oluvchi kitobxon.

### **3. Bob xulosa**

Bobda Mustahkam oila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarning to'liq natnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishni funksional va tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi. Shuningdek funksional strukturada sakkizta elementlarning bir-biri

bilan aloqasi, faolligini aks ettiradi. Tashkiliy strukturada axborot kutubxona muassasalari tarkibidagi bo'limlar, ularning o'zaro hamkorligi va bo'ysunishini belgilaydi.

Ushbu tuzilmalar foydalanuvchilarga ishni qanday boshlanganligini va bo'limlarni joylashuvini ko'rishi mumkin.

## **IV. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

### **4.1 . Mehnat faoliyati sharoitining klassifikatsiyasi**

Soʻnggi 10 yillikda mamlakatning xoʻjalik yuritish kompleksida katta oʻzgarishlar sodir boʻldi, yangi mehnat faoliyatlari paydo boʻldi. Bunday tashqari bozor iqtisodiyotiga oʻtish islohoti norentabel yoki zarar bilan ishlovchi korxonalarini qisqarishiga yoki butunlay yopilishiga olib keldi. Yangi, turli mulk shaklidagi korxonalar, fermer xoʻjaliklari tashkil topmoqda. Ularning iqtisodiy ahvoli ham turlichadir. Shu sababli ularning barchasida ham ishchilarga normal faoliyat koʻrsatishi uchun mehnat muhofazasi qonunlariga mos ish joylari yaratib berilgan deyish qiyin. Mehnat faoliyati sharoiti quyidagicha klasifikatsiyalanadi:

- 1) qulay;
- 2) uncha katta boʻlmagan hajmdagi ishlab chiqarish zararlari koʻrinishidagi qisman murakkabliklar bilan;
- 3) murakkab-ishlab chiqarishdagi zararlarning oʻrtacha hajmi bilan;
- 4) oʻta murakkab ishlab chiqarish zarrlarining absalyut maksimal hajmi bilan.

#### **Mehnat faoliyatini ogʻirligi va kuchlanganligini baholash**

Maʼlumki jismoniy mehnat qoʻllaniladigan mehnat faoliyati koʻproq sanoat va qishloq xoʻjalik korxonalariga aloqador boʻlib, ayniqsa mehnat jarayonlarida kam mexanizatsiyalashgan, kam avtomatlashtirilganlarga taalluqlidir. Jismoniy mehnat qoʻllaniladigan mehnat faoliyatlarini baholashning quyidagi koʻrinishlari mavjud:

- 1) engil jismoniy mehnat (ogʻir yuk koʻtarmaydigan) ishchilarni 2000 dan 2500 kkal gacha energiya sarflashini xarakterlaydi (oziq-ovqat, engil sanoat, iqtisodning elektronika sohalaridagi konveyer tarmoqlaridagi ishlar);
- 2) 25 kg gacha yuk koʻtarish bilan davom etadigan va 2500 dan 3000 kkal gacha energiya sarflanadigan oʻrtacha ogʻirlikdagi jismoniy mehnat (kichik ogʻirlikdagi va kichik oʻlchamdagi elektrotexnik, mashinasozlik detallari chiqariladigan metallarga ishlov berish ishlab chiqarishi);
- 3) har zamonda 25 kg dan ortiq yukni koʻtarishiga toʻgʻri keladigan, bir qator zararlari mavjud boʻlgan ogʻir jismoniy mehnat (shovqin, titrashlar, changlar, ximiyaviy va toksik moddalar, ishchi zonadagi havoning yuqori nisbiy namligi, yuqori harorat va shu kabilar);

4) Ishchi kun davomida ko'p bora 15 kg dan ortiq yukni ko'tarishga to'g'ri keladigan va ishchi organizmidan 6000 kkal va undan ortiq energiya sarf bo'lishiga olib keladigan juda og'ir jismoniy mehnat.

Qator ishlab chiqarish zararlarini ajralishi bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy mehnatda yuqorida qayd qilingan murakkabliklarni keltirib chiqaradigan korxonalar: qurilish materiallari ishlab chiqaradigan; metallarga ishlov berish; metallurgiya; transport mashinasozligi; har xil uskunalarni katta bo'laklarini yig'adigan mexanikssexlarda-temirchilik, presslashssexlari va boshqalar misol bo'ladi.

Mehnat muhofazasiga o'qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish bo'yicha namunaviy nizomda (№ 272, 14.08.1996) barcha korxonalar, tashkilot, muassasa, institut, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, birlashma, assotsiatsiya, korporatsiya, xolding, tarmoq, vazirlik va boshqa mulk shaklidan qat'iy nazar malaka talablari hajmida ishchilar, rahbarlar, mutaxassislar, muhandis-texnik xodimlar uchun mehnat muhofazasidan bilimlarni majburiy nazorat qilish tartibi belgilangan.

Korxonaga ishga kirayotgan har bir xodimga xavfli ish usullari bo'yicha yo'riqnoma, maxsus malaka olgandan va bilimi tekshirilgandan keyin mustaqil ishlashga ro'xsat beriladi. Bug' va issiqlik qozonlari, yuk ko'tarish kranlari, bosim ostida ishlovchi idishlar, elektr uskunalari, maxsus uskunalar kabi xavfli ishlarda ishlovchilarga maxsus o'quv kurslarini bitirganlari xaqida hujjatlari bo'lsagina ishlashga ruxsat beriladi. Xodimlarni xavfsiz ish usullariga o'qitish va ularni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha umumiy rahbarlik hamda javobgarlik korxonalar rahbarlariga va boshqaruv tashkilotlariga yuklanadi. ssexlarda, bo'limlarda ishchilarni va ustalarni xavfsiz ish usullariga o'rgatish shusse hamda bo'lim rahbarlariga, shuningdek, o'z vaqtida va sifatli o'qitishni nazorat qilish esa mehnat muhofazasi bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

**Ishchilar bilan yo'riqnoma o'tkazish.** Yo'riqnomalar ikki xil bo'ladi: kirish va ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma. O'z navbatida ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma 3 xil bo'ladi: dastlabki, davriy va navbatdan tashqari.

**Kirish yo'riqnomasi** barcha ishga yangi kiruvchilar, boshqa korxonalardan xizmat safariga jo'natilganlar (ish malakasi va stajidan qat'iy nazar) amaliyot

o'tayotganlar va shogirdlar kirish yo'riqnomasini o'tadilar. Uni korxonaning mehnat muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimi yoki shu vazifa yuklatilgan boshqa rahbar xodim o'tkazadi. Agar ishga qabul qilish bevositasexlarda amalga oshirilsa, kirish yo'riqnomasini shussexning boshlig'i o'tkazishi kerak. SHikastlanganlarga dastlabki yordam ko'rsatish, yong'in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo'yicha yo'riqnomalarni tegishli mutaxassislar olib boradilar. Kirish yo'riqnomasi maxsus adabiyot, ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan mehnat muhofazasi xonasida, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda o'tkaziladi. Kirish yo'riqnomasi guruh bilan va yakka tartibda o'tkazilishi mumkin. Guruh bilan o'tkazilganda eshituvchilar soni 10 kishidan oshmasligi kerak. Kirish yo'riqnomasi o'tkazilganligi haqida maxsus jurnalga va ishchi qo'liga topshiriladigan ishga kirish varaqasiga yozib qo'yiladi.

### **Kirish yo'riqnomasining dasturi:**

1. korxonada to'g'risida umumiy ma'lumot.

2. mehnat muhofazasi.

Havfsizlik standartlari tizimlari haqida umumiy ma'lumot. Ish vaqti va dam olish vaqti. Ayollar va balog'atga etmaganlar mehnatini muhofaza qilish. Davlat, tarmoq va jamoat nazorati. Korxonada baxtsiz hodisalarni taftish qilish. Ichki mehnat tartibi qoidalari.

3.Xavfsizlik texnikasi.

Xavfli, zararli ishlab chiqarish omillari va ulardan himoyalash. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning va kasb kasalliklarining asosiy sabablari. Xavfsizlik standartlari tizimlarida ishlab chiqarish jarayonlariga va uskunalarga qo'yiladigan talablar. Uskunalarining asosiy xavfsizlik qoidalari. Ogohlantiruvchi, to'suvchi va signal beruvchi vositalar. Xavfsizlik ranglari va belgilari. Elektr toki bilan jarohatlanish xavfini oshiruvchi sharoitlar. Jarohatlarning oldini olish tartiblari. Ish joyini xavfsiz tashkil qilish va saqlashga qo'yiladigan talablar. YUk ko'tarish va tashish mexanizmlari, ichki transport vositalaridan xavfsiz foydalanish qoidalari.

4.Ishlab chiqarish sanitariyasi.

Ishlab chiqarish muhitining asosiy sanitariya-gigienik omillari. Mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha asosiy tadbirlar (texnik va tashkiliy, sanitariya-gigienik,

davolash-profilaktik). Ish joylari havosini almashtirishning zarurati va tuzilishi. YOrug'likni to'g'ri tashkil qilish. SHovqinga qarshi tadbirlar.

5.SHaxsiy himoya vositalari, ulardan foydalanish me'yor va qoidalari. Himoya vositalariga qo'yiladigan talablar. Korjomalar maxsus poyafzallar. Qo'l, bosh, yuz, ko'z, nafas a'zolari, quloqni himoya qilish. Ogohlantiruvchi moslamalar.

6.SHaxsiy gigiena qoidalari. Sanitariya kiyimlari, poyafzallari va vositalariga qo'yiladigan talablar.

7.Korxonada yong'in xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.

8.Mexanik jarohat olganda, kuyganda, kislota va ishqorlar bilan kuyganda zaharlanishda, elektr va ko'z jarohatlari olgandagi dastlabki yordam.

9.Xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalari buzilganda qo'llanadigan javobgarlik. Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma. Barcha ishchilar kirish yo'riqnomasidan tashqari ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomalarni xam bilishlari lozim. Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnomadan maqsad-har bir ishchini to'g'ri va xavfsiz ish usullariga o'rgatish hisoblanadi. Yo'riqnomani o'tkazish jarayonida ishchiga u ishlaydigan uskunada bajariladigan texnologik jarayon, uning harakat uzatish mexanizmlari, xavfli joylari, konstruktiv xususiyatlari, paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavflar, ishni xavfsiz bajarish usullari, ish joyini to'g'ri tashkil qilish va shu kabi masalalar tushuniladi. Yo'riqnoma o'tkazish ishchining bevosita rahbari bo'lgan ustaga yuklatiladi. Ayrim zarur hollarda bu yo'riqnoma tegishli mutaxassislar (mexanik, energetik, texnolog) ishtirokida o'tkaziladi. Xodimlarga elektr xavfsizligi bo'yicha yo'riqnoma o'tkazish va malaka guruhi berish korxonaga bosh energetigi zimmasiga yuklatiladi. Ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma ishni xavfsiz olib borish qoidalari asosidassex boshliqlari tomonidan tuzilgan va korxonaga bosh muhandisi tasdiqlagan dastur bo'yicha olib boriladi. Bu yo'riqnomalar ruyxatini korxonaga bosh muhandisi kasaba uyushmasi raisi bilan birgalikda tasdiqlaydi. Ish joyida o'tkaziladigan dastlabki yo'riqnoma ishchini mustaqil ishlashga qo'yishdan oldin yoki ish xarakteri o'zgargan hollarda o'tkaziladi. Korxonaga ishga kirayotgan shaxs kasbiy malakasini malakali va tajribali ishchiga biriktirib qo'yish orqali oshiradi. Bunday biriktirib qo'yishssex boshlig'ining vazifasi hisoblanadi. Dastlabki yo'riqnoma o'tkazish yo'riqnomalarni

rasmiylashtirish jurnaliga yozib qo'yish orqali mustahkamlanadi. Barcha ishchilar o'ta xavfli ishlarni bajarishga vazifa olishlaridan avval javobgar rahbar tomonidan yo'riqnoma olishlari va bu haqda jurnalga xavfsizlik choralari ko'rsatilgan holda rasmiylashtirilishi kerak. Ish joylarida o'tkaziladigan yo'riqnomaning dasturi.

1. Texnologik jarayon va uskuna haqida umumiy ma'lumotlar. Asosiy xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari.
2. Ish joyiga qo'yiladigan xavfsizlik talablari.
3. Uskunaning (mashina, dastgoh, mexanizm) tuzilishi. Xavfli joylari, to'siqlari, ogohlantiruvchi moslamalari, blokirovka va signal berish tizimlari.
4. Ishga tayyorgarlik tartibi (uning sozligini, kerakli asbob-uskunalarining mavjudligini, erga ulash va boshqa himoya vositalarining mavjudligini tekshirish).
5. Xavfsiz ishlash usullari, xavfli vaziyatlar paydo bo'lganda qilinadigan ishlar.
6. Korjomalar, shaxsiy himoya vositalari va ulardan foydalanish.
7. Ishchilarni elektr xavfsizligini taminlashiga qo'yiladigan asosiy talablar.
8. sexda xavfsiz harakatlanish sxemasi.
9. YUk ortish-tushurish va tashish ishlarida xavfsizlik talablari. YUk ko'tarish, tashish uskunalari va mexanizmlarini xavfsiz ishlatish.

#### **4.2. Ishlab chiqarish muhitida mikroiklimni inson salomatligiga ta'siri**

Ishlab chiqarish zonalari ob-havo sharoitini havoning quyidagi ko'rsatgichlari belgilaydi:

1. Havoning xarorati graduslarda o'lchanadi
2. Havoning nisbiy namligi foizlarda aniqlaniladi
3. Havo bosim R mm simob ustuni yoki Paskal bilan o'lchanadi.
4. Ish joylardagi havo harorat tezligi m/sek o'lchanadi

Ulardan tashqari ob havo sharoitiga ta'sir qiluvchi ishlab chiqarish omillari ham mavjud, bular har xar xil mashina mexanizmlari va ishlov berilaetgan material yuzalaridan tarqaladigan issiqlik nurlari bo'lib havo haroratini oshirishga olib keladi. Bu omillar ta'siridan hosil bo'ladigan ishlab chiqarish zonasidagi havo muhitini sanoat mikroiklimi deb ataladi.

#### **4.2.1. Ishlab chiqarishda xonalarga qo'yiladigan mikroiklimning gigienik normalari.**

Ishlab chiqarish mikroiklim normalari mehnat xavfsizligi standartlar tizimi «Ish zonasi mikroiklim» me'yorlariga asosan belgilangan. Ular gigienik, texnik va iqtisodiy negizlarga asoslangan. Sanoat korxonalaridagi xonalar, yil fasllari va ish toifasiga qarab, ulardagi harorat, nisbiy namlik va havo harakatining ish joylari uchun ruxsat etilgan normalarida belgilangan.

Ish toifalari quyidagicha belgilaniladi: I toifa yengil jismoniy ishlar- o'tirib, tik turib yoki yurib bajariladi, biroq muntazam jismoniy zo'riqish yoki yuk ko'tarishni talab kilmaydi, energiya sarfi soatiga 150kkal (172J)ni tashkil kiladi. Bunga tikuvchilik, aniq asbobsozlik va sh u kabi ishlar kiradi. II toifa o'rtacha og'rilikdagi jismoniy ishlarga soatiga 150-250 kkal (172-293J) energiya sarflanadigan faoliyat turlari kiradi. Bunga doimiy yurish va og'ir bo'lmagan (10 kg gacha ) yuklarni tashish bilan bog'liq bo'lgan ishlar kiradi. Masalan yig'uv- to'qish ishlari, mexanik –yig'uv, payvandlash sexlaridagi ishlar kiradi. III toifadagi og'ir jismoniy ishlar- muntazam jismoniy jo'riqish, xususan og'ir yuklarni muttasil bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish va ko'tarib yurish bilan bog'lik ishlar kiradi. Bunga energiya sarfi soatiga 250 kkal dan yuqori buladi. Bunday ishlarga temirchilik, kuyuv va boshqa qatorssexlarda bajariladi. Harorat, nisbiy namlik va xavo xarakatining tezligi me'yordagi va yul kuyilishi mumkin bo'lgan miqdori qurinishida normalanadi. Me'yoriy miqdor deganda odamga uzoq muddat va muntazam ta'sir etganda tashqi muhitga moslashuv reaksiyalarini kuchaytirmasdan organizmning normal faoliyati va issiqlik holatini saqlashini ta'minlaydigan mikroiklim ko'rastgichlarining yig'indisi tushunilib, ular issiqlik sezish mutadilligini vujudga keltiradi va ish qobiliyatini oshirish uchun shart –sharoit hisoblanadi. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mikroiklim sharoiti organizm faoliyatini va issiqlik holatidagi o'zgarishdarni, fiziologik moslanisht imkoniyatlaridan chetga chiqmaydigan tashqi muhitga moslanish reaksiyalarini kuchayishini bartaraf etadigan va tez normaga soladigan mikroiklim ko'rsatishlarining yig'indisidir. Bunda sog'lik uchun xatarli holatlar vujudga kelmaydi, biroq kayfiyatning yomonlashuvi va ish qobiliyatining pasayishi kuzatilishi mumkin.

Inson hayoti xavoning ahamiyati juda kattaligi ma'lum. Uning kimyoviy tarkibi, fizikaviy xususiyatlari va tarkibidagi har xil moddalarning bo'lishi, havodan nafas olish, mehnat qilayotgan kishilar uchun juda muxim. Chunki havoning tozaligi inson salomatligini saqlovchi muhim omil hisoblaniladi. Er atmosferasi quruq xavo bilan ma'lum miqdordagi suv bug'laring aralashmasidan tashkil topgan. Ma'lumki havodagi gazlardan eng muhimi kisloroddir. Havo holati uning bosim, zichligi, harorati, absolyut namlik, namlik sig'imi, nisbiy namlik, issiqlik sig'imi va boshqalar bilan belilaniladi.

**Shamollatish usullari** korxonalarni loyihalashda iqlim sharoitini, kuyosh nurlarini tushush holatini va xonalrdagi jihozlarni to'g'ri joylashtirish masalalari to'g'ri hal qilingan bo'lsa, shamollatish vositalrini o'rnatish shunchalik oson bo'ladi. Shamollatish vositalarini o'rnatishda shamollatish sxemasining iqtisodiy kam xarajat bulishi bilan birga, iloji boricha kam metall sarf qiliadiganini tanlash zarur. Ishlab chikarish binoalarida mikroiklimni saqlab turish uchun ya'ni toza havo uchun ventelatsiya bilan ta'minlash kerak bo'ladi. Ventilatsiyaning keng qo'llaniladigan turi tabiiy umumiy ventilatsiya (aeratsiya) xilidir. Yana mexanik ventilatsiya xillari mavjud (oqimli, so'rib oluvchi, oqimli-surib oluvchi, konditsionerli). Korxonalarda ajaralib chiqayotgan zararli moddalar faqat issiqlik bo'lsa, unda almashtirilayotgan havoning hisoblanadigan miqdori

$$G1=Q/0.24(t1-t)$$

bu erda

G1-chikarilib tashlanishi kerak bo'lgan havo miqdori, KFFC:

Q- ortiqcha issiqlik miqdori:

t1- chiqarilib yuborilayotgan havoning harorati

t-xavo oqimining harorati.

Havodagi ortiqcha namlikni yo'qatishda quyidagi formuladan foydalaniladi

$$L=G/(d1-d)p$$

bu erda

L-xavo okimining xajmi m<sup>3</sup>/g:

G-binodagi suv buglaring massasi ,g/s:

d1- chikarilib yuborilayotgan havodagi namlik g/kg

d- tashqi havodagi namlik miqdori g/kg.

Havodagi gaz holdagi zararli moddalarni yo'qatishda quyidagi formuladan foydalaniladi

$$L=K/Kch-Koq$$

bu erda:

K- bino ga tarkaluvchi zararli moddalarni massasi mgg's:

K ch – chikarilib yuborilayotgan zararli moddalarning konsentratsiyasi mgg's: K ok-xavo okimidagi zararli moddalar konsentratsiyasi mgg's:

Kch ning kattaligi REK teng yoki kamroq bo'lishi kerak. K ok ning kons. esa sanitariya normalaridan kamroq bo'lib ruxsat etilgan kons. 0.3 dir. Tabiiy shamollatish tashqaridan bino ichiga kirgan sovuq havo bino ichidagi issiklik xisobiga issiklik kabul kilib, isigandan keyin xajmi kengayadi va engillashib binoning yukorisiga karab xarakatlanadi va trub a orkali tashkariga chikib ketadi. Bu xodisa aeratsiya deb ataladi.

Mexanizmlar ishlagan vaktida uzidan kup issiklik ajratib chikaradi va bu issiklikni tabiiy shamollatish yo'li bilan chikarib yuborish iqtisodiy samara beradi. Bunda asosiy e'tiborni havoni kirish va chikish joylaini ta'minlashga karatilgan. Ma'lumki issik havo yuqoriga qarab sovuq havo pastga karb yo'naladi. SHuning uchun ko'p issiqlik ajralib chiqadigan xonalarda sovuq havoni poldan 4 m balandlikdan berish maqsadga muvofikdir. Sovuq havo pastga yo'nalishida issiq xavo bilan aralashadi, isiydi va vujudga kelgan tabiiy okimlar xarakatiga kushilib uzluksiz harakat hosil qiladi. Bu uzluksiz harakat davomida okimlarga yangidan-yangi miqdorlar kushilishi natijasida yuqori to'siqlar tomon yunaladi va bir kismi tabiiy shamollatish tirkishidan tashkariga bir qismi sovib yana pastga tushadi va bu bilan xonadagi xavoni aylanma xarakatinikuchaytirishga uz xissasini kushadi. SHunday qilib binolarning ichida havo harakatlarining tutash oqimlari vujudga keladi. Tabiiy shamollatishni hisoblashda, asosan ma'lum isish hisobiga engillashib, binoning yuqori qismida yig'ilgan ortiqcha bosimni biron-bir havo chiqarib yuborish joyidan tashqariga yo'naltirish mo'ljallangan. Ortiqcha bosim balandlik hisobiga hosil bo'lganligidan uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R=N(\gamma-\gamma)$$

Bundan tashkari tabiiy xavo almashinish shamol ta'sirida bulishi mumkin. Agar bino shamol uriladigan tomondagi bosim shamol hisobiga birmuncha ijobiy bo'lsa, shamol urmaydigan tomonda bosim salbiy yo'nalishda bo'lsa unda quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$\Delta R = R - R_2$$

bu erda  $R$  – shamol urilayotgan tomondagi bosim:

$R_2$  – shamol urilmaydigan tomondagi bosim. Agar binoga xar ikkala bosim kuchi tabiiy shamollatish vazifasini bajaradi deb hisoblasak:

$$\Delta R = (\gamma - \gamma') N + (R - R_2)$$

Ortiqcha bosim miqdorini aniqlangandan keyin chiqarilib yuboriladigan havo miqdorini ham aniqlash mumkin

$$Q = \mu f \sqrt{2q\Delta R}$$

Bu erda

$\mu$ - havo miqdori koeffitsenti:

$f$ - havo chiqarilib yuborilayotgan teshik kesim yuzasi:

Agar chiqarilib yuborilayotgan havo miqdori kirib kelayotgan havo miqdoriga teng desak unda biz kirib kelayotgan havo harakati tezligini topishimiz mumkin :

$$V = Q/F$$

bu erda:  $F$ -havo chiqib ketayotgan tirikish kesim yuzasi .

Havodagi changdan tozalashda turli vositalardan foydalanish mumkin, chang tozalagichlarning turlari ko'p. CHang tozalovchi apparatlar ishlatish jihatidan qo'layligi, chang tozalash darajasiva arzon-qimmatligiga qarab tanlaniladi. Havo namligini mo'tadilashda ham muhim ahamiyatga ega. Havoni mo'tadillashtirish deganda sanoat korxonasi xonalaridagi havo holatini ichki omillar: issiqlik ajralib chiqish, namlik va tashqi omillar havoning issiq sovuqligidan qat'iy nazar, avtomatik ravishda bir xil me'yorda saqlab turish tushuniladi.

Havoni sanitariya-gigiena sharoitini yaxshilashdan tashqari texnologik talablar asosida ham mo'tadillashtirish mumkin. Xavoni mo'tadillashtirish uchun maxsus kondensionelardan foydalaniladi. Kondensionerlar xavoni kabul kiladi filtirlab beradi, issiq yoki sovuk bilan ta'minlaydi, hararkatga keltiradi, namlaydi va boshka jarayonlarni bajaradi

## XULOSA

Mustaqillik yillarida jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutining mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga respublika hukumati alohida e'tibor berib kelmoqda.

Ma'lumki, inson shaxsining shakllanishida shaxslararo munosabat, o'zaro fikr almashish, hamkorlikning ahamiyati katta. Ayniqsa axborot kutubxona muassaslarida mustahkam oila yilida qilinagan ishlar mazmunini o'rganib chiqdik. XXI asr - axborot asri. Keyingi paytda kutubxonalar, muzeylar, arxivlar, axborot markazlari fondiga turli xil ko'rinishlarda, elektron baza, ma'lumotlar banki, CD-ROM, DVD-ROM va disketlarda, boshqa axborot tashuvchi materiallarda ko'plab axborot olina boshlandi.

Ma'lumotlar bazasi - axborotni avtomatlashgan ko'rinishda olishga, qayta ishlashga mo'ljallangan mashinada o'qish uchun moslashtirilgan va qo'yilgan maqsadga xizmat qiluvchi ma'lumotlar yig'indisi.

Ma'lumotlar bazasida eng muhim narsa maqsadli dasturiy ta'minot va doimiy yangilab borishdan iborat. Ko'plab mamlakatlarning kitob palatalarida davlat bibliografiyasining to'la ma'lumotlar banki yaratilmoqda. Unda adabiyotlar haqida to'la bibliografik axborot qoidaga ko'ra to'plab boriladi. Respublikamizda ham nashr etilayotgan adabiyotlarning hamma turlari, shakllari an'anaviy solnomalar ko'rinishida elektron ko'rinishda tayyorlanib bormoqda.

Ko'pgina kutubxonalar esa adabiyotlarning to'la matnini yig'ish, saqlash ishlarini boshladi, unda Davlat qonunlari, me'yoriy hujjatlar, badiiy asarlar, maxsus adabiyotlar, oliy o'quv yurti kutubxonalarida professor, o'qituvchilarning ma'ruza matnlari, darsliklari, o'quv qo'llanmalarining matnlari, ilmiy maqolalari, ilmiy to'plam materiallari, avtoreferatlar, talabalarning bitiruv-malakaviy ishlari, predmetlar yuzasidan dasturlarning matnlarini to'plash ishlari olib borilmoqda.

Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan zamon talablari asosida oldimizga qo'yilayotgan vazifalar axborot-kutubxona xizmatini yanada sifatli takomillashtirish, elektron kutubxona ishini tashkil etish, ularning elektron

resurslar fondini tashkil etish, ulardan aholining keng va samarali foydalanishini tashkil etish kelgusida shu sohada faoliyati ko'rsatishi lozim bo'lgan biz yoshlardan mukammal nazariy va amaliy bilim olishni talab etmoqda.

Keyingi paytda mamlakatimiz axborot-kutubxona muassasalarida multimediyali, animatsiyali kutubxona saytlarini zamon talablarini, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishning sifat va samarasini oshirish uchun talablarni hisobga olgan holda yaratish musobaqasi boshlandi. Ularning ko'pchiligi qaysidir tomoni bilan ustun bo'lsa, boshqa tomoni bilan hali qayta ishlashni, o'zgartirishni talab etadi. Shuning uchun mamlakatimizda mavjud saytlarni tahlil qilishga, o'rganish bilan birga, kelgusida yaratilishi lozim bo'lgan dasturlarni ishlatishning qulayligiga e'tiborni qaratdik. Chunki, bu dasturlarning qulayligi shundan iboratki, ma'lumotlar bazasi bilan ishlash oson, ma'lumotlar bazasini yaratish va ularni to'ldirib borish, cheklanmagan miqdorda ma'lumot qo'shib borish imkoniyati, ma'lumotlar bilan ishlash tezligi katta, boshqa dasturlar bilan oson bog'lanadi va ular bilan ishlay oladi. Mustaxkam olila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarining to'liq matnli ma'lumotlar bazasi ya'ni elektron ko'rinishi mavjud bo'lmaganligi sababli hozirgi kun talablaridan kelib chiqib uni yaratish ehtiyoji paydo bo'ldi va biz shu vazifani bajarish uchun harakat qildik. Mustaxkam olila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarining electron katalogi to'liq matnli ma'lumotlar bazasi yaratildi va undan foydalanish o'rganildi. Mustaxkam olila yiliga bag'ishlangan adabiyotlarining to'liq matnli ma'lumotlar bazasini shakllantirishning funksional va tashkiliy tuzilmalari ishlab chiqildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **O'zbekiston Respublikasi qaror va qonunlari**

1. Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 Iyun qarori //Ma'rifat. - 2006. – 21 Iyun.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mustahkam oila yili davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori // «Ma'rifat» gazetasi 2012 yil 29 fevral.

3. Kutubxonalar taraqqiyot yo'lida: [Prezidentimizning "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" gi qarori asosida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar haqida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Abdusalom Umarovning qilgan ma'ruzasi] // Mohiyat.- 2006.- 3 Noyabr.

### **Prezident I.A.Karimov asarlari**

4. Karimov I.A. O'zbekistin XXI asrga intilmoqda .- Toshkent: O'zbekiston,1997 .-326 b.

5 . Karimov I.A. Ozod va obod Vatan ,erkin va faravon hayot pirovard maqsadimiz.- Toshkent: O'zbekiston, 2000.

6. Karimov I. A. Inson manfaatlarini ta'minlash , ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish –ustuvor vazifamizdir.- Toshkent: O'zbekiston, 2007.-48b.

7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

### **Қўшимча адабиётлар**

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .-Toshkent; O'zbekiston,2012 .-40b.

9. O'zbekiston Respublikasining Oila ko'deksi.-Toshkent; Adolat,.-448b.

10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mustahkam oila yili davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori // «Ma'rifat» gazetasi 2012 yil 29 fevral.

11.Quronov .M.Oilam mustahkam bo'lsin desangiz.- T.:«Сано-стандарт»

12. Karimov U. Axborot-kutubxona, axborot-resurs markazlari va kutubxonalar uchun dasturiy ta'minot: Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT-M) //Elektron kutubxona tarmog'larida ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ta'limiy axborotlar yaratish va ulardan foydalanish: To'plam. -

Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. -  
В. 32-39.

13. Saidov M.X. va boshqalar. Ijtimoiy himoya :atamalar izohli lug'ati.-  
Т.А. Navoiy nomidagi O'zbekiston Miliy Kutubxonasi nashriyoti, 2007.

14. Karimov U. va boshq. Avtomatlashtirilgan kutubxona: O'quv qo'llanma /U.  
Karimov, M.A. Rahmatullaev, A.O. Umarov, A.Sh. Muhammadiev. - Т.: Alisher  
Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2003. - 266 b.

15. Karimov U. va boshq. Korporativ-axborot-resurs markazlarining  
avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT): Uslubiy qo'llanma /U. Karimov, M.A.  
Rahmatullayev, A.Sh. Muhammadiyev, J. Atajanov, M.P. Savochkin. - Т.:  
Toshkent davlat yuridik institut nashriyoti, 2009. - 79 b.

16. Karimov U. va boshq. Ilmiy-texnikaviy axborotlar elektron kutubxonasi  
//Infocom.uz. - 2009. - №10. - В. 36.

17. Karimov U., Karimov O'.U. Elektron kutubxona yaratish qoidalari  
//Infocom.uz. - 2009. - №8. - В. 34.

18. Karimov U., Rahmatullaev M.A. Korporativ kutubxona-axborot tizimlari va  
tarmoqlari: Monografiya. - Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy  
kutubxonasi nashriyoti, 2008. - 168 b.

19. Рахматуллаев М.А. Библиотека через века! //Вопросы реформирования  
библиотечного дела Узбекистана: сб. мат. круглого стола «Бетгеровские  
чтения – 2006». – Т. : Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана  
имени А. Навои, 2007. – С. 61-66.

20. Рахматуллаев М.А. Вхождение в мировое информационное пространство  
//Компьютел: Компьютеры и коммуникации. – 1998. – №6. – С. 3-5.

21. Рахматуллаев М.А. Информационные ресурсы для науки, образования,  
культуры и бизнеса. Проблемы и решения по созданию //Библиотечно-  
информационные ресурсы в науке, образовании, культуре и бизнесе: мат.  
Междунар. конф., Ташкент-Самарканд, 2004. – Т., 2004. – С. 10-18.

22. Рахматуллаев М.А. Научно-образовательная и научно-техническая  
информация в сети электронных библиотек //Технологии создания и  
использования научно-технической и научно-образовательной

информации в сети электронных библиотек: Сб. – Т.: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана имени А. Навои, 2009. – С. 14-22.

23. Рахматуллаев М.А. Правовые аспекты использования электронных публикаций в библиотеках //Kutubxona.uz. – 2009. – №2. – С. 18-24.

24.Kutubxonalar taraqqiyot yo'lida: [Prezidentimizning "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" gi qarori asosida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar haqida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori Abdusalom Umarovning qilgan ma'ruzasi] // Mohiyat.- 2006.- 3 Noyabr.

25."Kutubxona resurslaridan faol va ijodiy foydalanish muammolari": Davra suhbat materiallari: Betgerxonlik-2004 = "Проблемы активного и творческого использования ресурсов библиотек": Материалы круглого стола Бетгеровские чтения- 2004 /Tahrir kengashi: A.O.Umarov, I.Z.Maminova, U.F.Karimov.- Т., 2004.- 163 b.

26.Xoliqov D.Oilashunoslik ilmi-oila muammosi yechishi ekanligi // xalq ta'limi jurn. 2000. №5 – 111-112 b.

27.Xasanboyeva O., Xoliqov D. va boshqalar. «Oila pedagogikasi» Darslik – Toshkent: Aloqachi, 2007. – 384 b.

28.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. Uchinchi jild, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, - Т.: , 2007, 97-bet

### **Internet saytlari**

<http://tizer.adv.vz.ru>

<http://www.Googlu.uz/ru>

<http://www.Ziyo Ne>

## **ILOVA 1**

### **“Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori**

Jamiyatimizning asosi bo‘lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog‘lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeiini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, 2012 yil O‘zbekiston Respublikasida “Mustahkam oila yili” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan:

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 13 dekabrda F-3760-son farmoyishi bilan tuzilgan Respublika komissiyasi tomonidan manfaatdor vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, jamoat hamda nohukumat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror” degan insonparvar tamoyildan kelib chiqqan holda, quyidagilar “Mustahkam oila yili” Davlat dasturini amalga oshirishning eng muhim yo‘nalishlari etib belgilansin:

yosh oilalarga e‘tibor va g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta‘minlash, moddiy va ma‘naviy jihatdan keng qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan qulay va shinam uy-joy bilan ta‘minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish;

jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, Mustahkam oila yili maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishda mahalla va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari

ahamiyatini, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta’sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko‘mak va yordam berish;

oila, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g‘amxo‘rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko‘rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o‘z yelkasiga olgan ayollarga alohida e‘tibor qaratish;

“Sog‘lom ona – sog‘lom farzand” tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;

jamiyatimizning ma’naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma’naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo‘lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turishda oilaning o‘rni va ahamiyatini oshirish;

**2. Respublika komissiyasi (SH.M.Mirziyoyev) zimmasiga “Mustahkam oila yili” Davlat dasturining amalga oshirilishini tashkillashtirish va monitoring qilish vazifalari yuklatilsin.**

Respublika komissiyasi: ikki hafta muddatda, “Mustahkam oila yili” Davlat dasturining ustuvor yo‘nalishlari va tadbirlaridan kelib chiqqan holda, respublika davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, jamoat tashkilotlari tomonidan har bir idora, viloyat, shahar, tuman va aholi punkti bo‘yicha “Mustahkam oila yili”ning hududiy va tarmoq dasturlari ishlab chiqilishi hamda qabul qilinishini ta’minlasin;

“Mustahkam oila yili” Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlarni to‘liq, sifatli va o‘z vaqtida bajarish bo‘yicha respublika davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari darajasida ishlar aniq-puxta muvofiqlashtirilishini tashkil etsin, Dastur amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatsin;

Dasturning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi materiallarni yilning har choragida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlislarida ko‘rib chiqsin;

har chorak yakunlari bo'yicha "Mustahkam oila yili" Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar bajarilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga axborot berib borsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (SH.M.Mirziyoyev) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tumanlarda (shaharlarda) "Mustahkam oila yili" Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyat, shahar, tumanlar hokimlari boshchiligida hududiy komissiyalar tuzilishini ta'minlasin, ularning zimmasiga Dasturda nazarda tutilgan chora-tadbirlar tegishli hududlarda og'ishmay va to'liq hajmlarda amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlikni yuklasin.

4. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, ommaviy axborot vositalari:

aholi, ayniqsa, yosh oilalar o'rtasida "Mustahkam oila yili" Davlat dasturining maqsad va vazifalarini, davlat tomonidan oilalarni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish hamda mustahkamlash bo'yicha unda belgilangan chora-tadbirlarni muntazam va keng ko'lamda tushuntirib borilishini;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishga qo'shgan aniq hissasini aks ettirgan holda "Mustahkam oila yili" Davlat dasturining amalga oshirilishi to'g'risida keng jamoatchilik doimo xabardor qilib turilishini ta'minlasinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.M.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin

**O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimov**